

## Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

2020-yil yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2202,9 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 27,6 % ga o'sishni ta'minladi.

## Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'ratacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Korxona va tashkilotlar  
soni

**101,7**



Xodimlar soni

**101,4**



Ish haqi fondi

**129,4**



O'rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi


**127,6**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlarining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %  
(2020-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilorlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm**

(2020-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o‘ratacha oylik ish haqining o‘zgarishi  
(2020-yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)**

	<i>Korxona va tashkilotlar soni, birlik</i>	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mln.so‘m</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m</i>
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	<b>3130</b>	<b>123700</b>	<b>817487,2</b>	<b>2202,9</b>


*shu jumladan:*

Sanoat	34	12532	109193,8	2809,9
Qurilish	12	1149	7789,9	2244,3
Savdo	24	2009	13488,8	2127,0
Tashish va saqlash	7	2458	32847,5	4442,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	13	70	285,5	1352,6
Axborot va aloqa	18	134	974,0	2416,6
Bank, sug‘urta va vositachilik	30	2941	41191,8	4437,1
Ta’lim	1183	58458	340933,6	1919,0
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	72	23290	136439,6	1930,4
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	155	1990	9572,4	1544,0
Boshqa faoliyat turlari	1582	18669	124770,3	2210,9

**Ish haqi.** 2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.


**Ta'lif sohasida 1183 ta muassasada 58458 nafar** (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,3 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **340 933 576,9** ming. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 41,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1919,0** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sdi.





**Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish haqi  
(2020-yil yanvar- mart, qishloq xo'jaligi  
va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda



Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri – 131,1% va Xonqa tumani – 103,7 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Yangibozor -90,4 %, Gurlan - 90,3 %, Yangiariq - 88,6 % hamda Qo'shko'pir – 88,2 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






**Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha  
oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2020-yil yanvar- mart, qishloq xo'jaligi va  
kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**



**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Hazorasp tumani - 145,2 %, Xonqa tumani - 112,1 % va Bog'ot tumani - 108,2 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Shovot - 73,9%, Urganch - 65,0 %, Gurlan - 59,2 % hamda Xiva - 40,0 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**






**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2020-yil yanvar- mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**



**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Qo'shko'pir tumani - 124,2 %, Bog'ot tumani - 117,1 % va Xonqa tumani - 108,9 % hissasiga to'g'ri kelgan.

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda**

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Xiva shahar - 94,0 %, Hazorasp - 94,0 %, Yangibozor - 91,7 % hamda Shovot - 80,7 % tumanlarida kuzatildi.






## Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar- mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'r radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida - 161,2 % kuzatildi, shuningdek, viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar Xonqa - 114,7 % tumanida kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Bog'ot - 56,7 %, Xiva - 54,0 %, Xiva shahar - 47,9 % hamda Qo'shko'pir - 42,9 % tumanlarida kuzatildi.


### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





**Bank, sug‘urta va vositachilik faoliyati bo‘yicha  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2020-yil yanvar- mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik  
sub’ektlaridan tashqari)**

**O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda**




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko‘rib chiqilganda eng yuqori ko‘rsatkich Xonqa tumani - 116,9 % va Urganch shahrida - 111,2 % ni tashkil etdi.

**O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘mda**

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi viloyatning ba‘zi tumanlarida viloyat o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

Ish haqining sezilarli past ko‘rsatkichlari Gurlan tumani - 35,5 %, Qo‘siko‘pir tumani - 30,7 %, Hazorasp tumani - 24,6 % hissasiga to‘g‘ri keldi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %**

(2020-yil yanvar- mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

Xorazm viloyati bo'yicha 2020-yil yanvar-mart oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati tashish va saqlash sohasida 79,8 %, qurilishda 57,1 %, moliyaviy va sug'urta faoliyatida 43,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 32,5 % va sanoatda 27,1 % kuzatildi.




**Sanoat sohasida bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %**

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)


Sanoat sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning yanvar oyida 2535,9 ming so'mni, fevral oyida 2431,6 ming so'mni, mart oyida esa 3434,1 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,1 % ga o'sdi.





**Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %**  
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*



Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning yanvar oyida 1817,8 ming so'mni, fevral oyida 1969,8 ming so'mni, mart oyida esa 1967,9 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.


Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o'sdi.



**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %**  
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*


Bank, sug'urta va vositachilik faoliyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning yanvar oyida 3560,3 ming so'mni, fevral oyida 4105,3 ming so'mni, mart oyida esa 5633,4 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,2 % ga o'sdi.



## Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbati, %

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 2703,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (122,7 %), Hazorasp tumanida 2411,5 ming so'mni (109,5 %) tashkil etgan bo'lsa, Gurlan tumanida 1778,1 ming so'mni (80,7%), Yangibozor tumanida 1780,7 ming so'mni (80,8 %), Yangiariq tumanida 1798,0 ming so'mni (81,6 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi***(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ktlariidan tashqari, ming so'm)*

	2019-yil yanvar- mart	2020-yil yanvar- mart	O'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1726,2</b>	<b>2202,9</b>	<b>127,6</b>
Urganch sh.	2009,8	2703,4	134,5
<b>Xiva sh.</b>	<b>1535,8</b>	<b>1832,2</b>	<b>119,3</b>
tumanlar:			
Bog'ot	1560,8	1941,4	124,4
Gurlan	1485,3	1778,1	119,7
Qo'shko'pir	1419,9	1801,2	126,9
Urganch	1706,8	2062,2	120,8
Hazorasp	1850,5	2411,5	130,3
Xonqa	1674,3	2112,4	126,2
Xiva	1539,7	1890,3	122,8
Shovot	1446,8	1854,0	128,1
Yangiariq	1636,4	1798,0	109,9
Yangibozor	1483,4	1780,7	120,0

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020-yil mart oyida 679,3 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi.**